O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

2026-yil 12-fevral



Сканировано с CamScanner

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

***“Zahiriddin Muhammad Bobur merosining sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni”* mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2026-yil 12-fevral.**

Mas’ul muharrir:

Sh. Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:
N.Normurodova – ilmiy va innovatsiya ishlari bo‘yicha prorektor
H.Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor
Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor
B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor
M.Xakimova – filologiya fanlari doktori, professor
M.Qurbonova– filologiya fanlari doktori, professor
M.Umurzoqova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.
M.Abjalova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.
S.Bozorova – katta o‘qituvchi
D.Muhammadiyeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.Shamsiyeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
I.O‘razova –filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
G.Komilova– filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.Xolmuradova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.To‘xtasinova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.Mahkamova – katta o‘qituvchi
Z.Davronova – tayanch doktorant
Z.O‘rinova – tayanch doktorant
M.Abduazizova – tayanch doktorant

Ushbu to‘plamda Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” mavzusidagi uluslararo ilmiy nazariy konferansi materiallari jamlangan. To‘plamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati, adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyot rivojidagi o‘rni, adabiy-lingvistik, tarixiy-sotsiologik tadqiqi, shuningdek, Bobur va boburiylar siymosining zamonaviy adabiyotdagi badiiy talqini, adabiy ta’sir va izdoshlik masalalariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

BOBURNOMA” DA UCH MALIKA TALQIN VA TASVIRI
THE DEPICTION AND CHARACTERIZATION OF THREE PRINCESSES IN THE BABURNAMA

Abdurahmonova Barno Muhammadjonovna
Filologiya fanlari nomzodi
Qo‘qon davlat universiteti professor v.b.
Abduraxmonova Olmosxon Ilxomjon_qizi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
O‘zRes.FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktorant (DSc)
https://orcid.org/0000-0002-8240-1523
os0893@mail.ru
10.52773/tsuull.conf.2026/YASL9551

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida tilga olingan ayollar obrazlari tahlil qilingan. "Boburnoma"da ayollarning nasabnomasi, hurmati, aql-zakovati, odob-axloqi va nafisligi tasvirlangan. Ushbu ta'riflar asosida Boburning ayollarga bo'lgan hurmati materiallari ochib berilgan.

Annotatsion. The article contains an analysis of the images of women mentioned in "Baburnoma" by Zahiriddin Muhammad Babur. "Boburnoma" describes women's genealogy, respect, intelligence, manners, and grace. Based on these definitions, the materials of Babur's respect for women have been revealed

Keywords: Z.M.Bobur, Boburnoma, ayollar obrazi, Qutlug‘ Nigorxonim, Eson Davlatbegim, Xonzodabegim, Mohimbegim, Oysha Sultonbegim.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari nafaqat o‘zbek adabiyotining balki, butun jahon ma’naviyati, adabiyoti va matnshunosligida muhim o‘ringa ega bebaho asardir. U o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyatga molik tarixiy- ilmiy asar sifatida o‘rganiladi.

“Boburnoma”ning muhim jihati shundaki, unda Bobur taxtga chiqqandan to vafotigacha bo‘lgan vaqt mobaynidagi Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, ijtimoiy – iqtisodiy hayoti, geografik-ma’muriy tuzilishi, iqlimi, tili, urf-odatlari, tabiati haqida nodir ma’lumotlar bergan. Dunyo olimlaridan yaponiyalik bobur shunos Eyji Mano mazkur asarni “ma’lumotlar xazinasi”, angliyalik bobur shunos Beverij xonim “butun tarixda yaratilgan yozma yodgorliklarning eng bebahosi” – deya ta’rif berishgan [Saidov, 2021: 67].

“Boburnoma”da Boburning butun hayoti, ota-onasi, yaqinlari, amir-u navkarlari, borgan shaharlaridagi mashhur shaxslar, hattoki, ayollar haqida qisqacha ma’lumotlar berib o‘tilgan. Rui De Klavixo “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” da shunday fikr bildiradi: “Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davlatiga xos xususiyatlardan biri ayollarga bo‘lgan munosabat masalasidir. Zero, ayollar ham ulug‘ mavqega ega bo‘lgan” [Fayziyev, 2012: 72].

“Boburnomada” Bobur oltmishdan ortiq ayollar obrazini qaysidur darajada asar xarakteridan kelib chiqib tasvirlaydi. Bobur asarda har bir ayol obrazini tanishtirishda obyektiv bo‘lishga intiladi. Muallif ularga nisbatan fikr bildirmaydi. Balki, xotin-qizlarning nasl-nasabi, hurmat-e’tibori, aqli, odobi, latofatini ta’riflaydi.

Tadqiqotchi X.Baratova ham “Boburnoma” asarida tilga olingan xotin-qizlar obrazining jismoniy go‘zalligi mutlaqo tilga olinmagan. Asar muallifi ayol shaxsiga aqliy mushohada va shijoat, itoat va munislik, idrok va zakovat, sadoqat va muhabbat, vafo va hayo, diyonat va islomiyat kabi masalalar nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘lgan hamda xotin-qizlar obrazini ana shu ruknlar mohiyatidan kelib chiqib yaratgan. Asarda obraz yaratishda badiiy to‘qimadan umuman foydalanilmagan. Har bir ayol shaxsiyatiga xos xususiyatlar hech qanday bo‘rttirshlarsiz, to‘qimalarsiz, mavhum mulohazalarsiz, hissiy yaxlit, bir butun takrorlanmas tarzida aniq aks ettirilgan.“Boburnoma” badiiy kompozitsiyasida tutgan o‘rniga qarab tarixiy-adabiy asardagi xotin-qizlar obrazini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Yetakchi obrazlar.
2. Yordamchi obrazlar.

Birinchi turga Esandavlat Begim, Shohbegim, Qutlug‘nigor Xonim, Xonzoda Begim, Mohim Begim, Xadicha Begim, Feruza Begim, Oqobegim, Opoqbegim, Begim Sulton, Zuhrabegi Og‘a obrazlarini kiritish mumkin. Mazkur ayol obrazlarining har biri o‘zida katta badiiy umumlashmani mujassamlantiradi va shu bilan birga o‘quvchi nazarida individual bir inson sifatida namoyon bo‘ladi” degan fikrlarni keltirgan [Baratova, 2024].

X.Barotovaning ta’kidlashicha: “Esan Davlat Begim, Qutlug‘ Nigorxonim, Xonzoda Begim kabi obrazlar yetakchi obraz bo‘lib,muallif-qahramon obrazi bilan yonma-yon “Vaqoe” voqealarining markazida turib, tarixiy-adabiy asar sujetini harakatga keltirgan” [Baratova, 2024]. Biz fikrimizni ana shu yetakchi uch obraz xususida bildiramiz.

Bobur asarda onasi Qutluq Nigorxonim, ulug‘ onasi Eson Davlatbegim, opasi Xonzodabegim, sevikli rafiqasi Mohimbegim kabi ayollar obrazlarini bir necha bor tilga oladi va ular haqida lozim o‘rinlarda noyob ma’lumotlarni berib o‘tadi.

Bobur onasi Qutlug‘Nigorxonimni “Boburnoma”da o‘n uch o‘rinda tilga oladi. Asarda “mening volidam”, “mening onam”, “volidam”, “volidaxonim”, “onam”, “onam xonim” jumlalari bilan eng ko‘p tasvirga olgan ayol obrazi ham aslida onasidir [Rajabova, 2013: 23].

Asarda Qutluq Nigorxonim shunday ta’riflanadi: “Yunusxon va Eson Davlatbegimning qizi, Umarshayx mirzoning xotini, Xonzodabegim va mening **volidam** …”, “… Aksar harbiy safarlar va sargardonliklarda men bilan birga edi. Kobulni olganimdan so‘ng besh-olti oy o‘tib, to‘qquz yuz-u o‘n birinchi yili Tangri rahmatiga oldi” [Boburnoma, 2019: 169].

“Boburnoma” dagi Qutluq Nigorxonim obrazi orqali ko‘plab og‘ir damlarda o‘g‘lining oldida bo‘lgan mehribon va mushtipar ona ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi.

Muallif asarda ikki ayolga nisbatan “ulug‘ onam” degan so‘zni tilga olgan. Bulardan biri otasining onasi – Shohsultonbegim, ikkinchisi onasining onasi – Eson Davlatbegim. Shohsultonbegim bir o‘rinda, Xubon kentini qo‘lga kiritish voqealarida, tilga olingan. Eson Davlatbegim nomi esa uch bora keltirilgan. Bobur unga shunday ta’rif beradi: “Xotinlar orasida ra’y va tadbirda mening ulug‘ onam Eson Davlatbegimcha kam bo‘lg‘ay edi. Bisyor oqila va mudabbira edi. Ko‘proq ish – kuch alarning mashvarati bila bo‘lur edi” [Boburnoma, 2019: 12].

Bundan ko‘rinadiki, Eson Davlatbegim timsolida biz davlat siyosatida, jamiyatda va ijtimoiy hayotda katta mavqega hamda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ayol obrazini ko‘rishimiz mumkin. Hindistonga qilgan ilmiy sfarimiz davomida hind yozuvchisi va olimasi Ira Mohuttaning “Quyosh malikalari” kitobida Boburning buvisi Esondavlatbegim bilan bog‘liq bir rivoyati keltirilgani haqida so‘zlab berishdi.Unda temuriy malikalarga bolaligidan boshlab dunyo ilmlari bilan birga jang san’atlari ham o‘rgatilgani, shuning uchun ular qo‘rqmasdan erlari bilan jang-u jadallarda turmush o‘rtoqlariga hamroh bo‘lib yurishlari haqida yozilgan edi. Rivoyatda dushmanga qarshi janglardan birida har doimgidek, Yunusxonga Esondavlat Begim hamroh bo‘ladi. Jangda Yunusxon dushmanga asir tushadi. Bundan foydalangan dushman-raqibllar boshlig‘i Esondavlat Begimni ayonlardan biriga hikohlab bermoqchi bo‘ladi. Bo‘lajak kelinga sovg‘a-salomlar, qimmatbaho liboslar keltiriladi. “Kelinni”kelinlik liboslari bilan ziynatlaydilar. Kech tushgach, kuyovni kelinning huzuriga kiritadilar. Zum o‘tmay, tashqariga uloqtirilgan kuyovni ko‘rib hamma hayratga tushadi. Kelin-Esondavlat Begim jasurlik bilan dushman boshlig‘ining huzuriga chiqadi. Va qat’iat bilan unga qarata: Men musulmon farzandiman.Men boshqalarning zo‘ravonligiga emas,o‘z dinimdagi Alloh buyurgan qonunlarga buysunaman. Mening dinimda erli ayol o‘z erining nikohida bo‘la turib, boshqaning nikohiga kirishi man etilgan. Erimning hikohidan chiqmaguncha sening shartingga buysunmayman. Agar sen mening shartimga ko‘nmasang, boshimni kundaga qo‘y-deydi. Ayolning bu jasaoratidan sarosimaga tushib qolgan dushman boshlig‘i Esondavlat Begimni o‘z chodiriga qaytarib yuboradi.

Esondavlat Begim mug‘ul beklarining ulug‘laridan Sher Hojibekning qizi edi. U Yunusxonga nikohlanganda mug‘ul to‘ralari urf-odatlariga ko‘ra kelin bilan kuyovni birga oq kiygizga o‘tirgizshgan. Bu Esondavlat Begimday qizning davlat ishlarini boshqarishda teng huquqli ekanligini hamda mamlakat malikasi bo‘lganligini anglatar edi.Tarixdan yaxshi ma’lumki, Esondavlat Begim Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonimning volidasi. Boburning otasi Umarshayx Mirzo vafotidan so‘ng Esondavlat Begim qolgan umrini qizi va nabirasi Bobur bilan birga o‘tkazadi.

O‘z davrining dono bu ayoli yosh Boburning mamalakatni boshqarish ishlarida doimo o‘zining jo‘yali maslahatlarini berib turgan. Bobur taxtiga ko‘z tikkan kishilarni ziyraklik hamda harbiy sinchkovlik bilan kuzatib turgan. Hatto buni oldini olish choralarini ko‘rgan. Chunki, Esondavlat Begim mug‘ullar mamlakat va uni boshqarish sohasida yetarli tajribaga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham u davlatni idora etishdagi eng kichik muammolardan tortib, katta masalalargacha o‘z tajribasidan kelib chiqib har taraflama baholay olardi. Tadqiqotchilar Esondavlat Begimni “…o‘z kuzatuvlari asosida davlat tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan hokimlar, beklar, amiru umarolar, turli maqomdagi saroy ayonlarining har biri nima bilan, qanday nafas olayotganligini aniq va tiniq his qila oladiga ayol ekanligini e’tirof etadilar” [Z.M.Bobur, 2018].

Ulug‘ onaning ziyrakligi va mamlakat boshqaruvidagi mahorati bois o‘n ikki yoshida Farg‘ona taxtiga o‘tirgan Bobur davlatiga qarshi kurashga otlangan Hasan Ya’qub boshchiligidagi dushmanlar hamlasi barbod qilingani tarix sahifalarida muhrlangan.

Siyosiy hushyorlik, harb san’atidan ham boxabar bu ayol, nabirasi Bobur davlatiga sadoqat bilan qaragan, ogohlik, kuchli ijtimoiy siyosat yurita olish sir-u asrorlarini Boburga o‘rgatgan. O‘zining siyosiy hayotini aql- zakovat nuri bilan yoritgan ulug‘ onasiga Boburning muhabbati ham beqiyos edi. Esondavlat Begimning yuksak idrokii, farosati, tadbirkor va aql-zakovati, harb san’atida benazirligi,mamlakat boshqaruvida faol ayolligi sabab Bobur saltanati uzoq yillar tarix sahnasidan tushmadi. Keltirilgan kichikkina bir iqtibosning o‘zi Boburdagi jasorat va yovqurlik Ulug‘onasi-Esondavlat Begimdan o‘tgan deyishimizga to‘la asos bo‘ladi.

“Boburnoma”da Boburning opasi Xonzodabegim haqida ko‘p ma’lumot keltirmagan. Xonzodabegim (Umarshayxning qizi, Boburning opasi) asarda 3 o‘rinda tilga olinadi. Dastlab, Umarshayx mirzo avlodi haqida gap ketganda. Bobur bu o‘rinda: “Qizlardan kattasi Xonzodabegim men bilan bir onadan tug‘ilgandi, u mendan besh yosh katta edi”, deya ta’rif beradi [Z.M.Bobur, 2018: 65]. So‘ng Saripuldagi jang tafsiloti va unda opasi Xonzodabegimning Shayboniyxon qo‘liga tushib qolganini afsus bilan qayd etadi. Xurramshoh otli o‘g‘li borligi va Shayboniyxon unga Balx viloyatini topshirganligini qayd etadi. Shayboniyxon o‘limidan bir-ikki yil so‘ng tangri rahmatiga borgani aytiladi. Shoh Ismoil Shayboniyxonni mag‘lub etgach, Xonzoda begimni Qunduz sari eltadilar va aka-singil 10 yil o‘tgandan keyingina uchrashadilar.

“Boburnoma”da keltirilishicha, Xonzodabegim va uning yonidagilar Boburni tanimaganlar. “Ismimni aytganimdan keyin ham ancha muddatdan so‘ng tanidilar” [Z.M.Bobur, 2018: 65]. Xonzodabegim va Bobur bir-birlariga juda mehribon, yoshlikdan birga ta’lim-tarbiya ko‘rgan aslzoda opa-ukalar bo‘lgan. Opasi Boburni har qanday holatda qo‘llab-quvvatlagan. Shayboniyxon bilan jangda Boburda og‘ir vaziyat bo‘lib, qamalda qoladi. Shayboniyxon bilan sulh tuziladi, lekin evaziga Shayboniyxon Xonzodabegimni so‘raydi. Bobur bu

shartga qarshilik bildiradi. Xonzodabegim xalqni qamalda qiynalyotganini, ko‘plab insonlar ochlikdan vafot etayotganini ko‘radi va jasurlik bilan Shayboniyxon oldiga boradi. Qamal tugatiladi. Bu ma’lumotlar haqida “Boburnoma”da qisqacha aytib o‘tilgan.Xonzodabegimning xalqi uchun kuyunishi, ukasini qiyin damda qutqarishga urunishi, bizga uni jasoratli malika timsolida tanitadi.

Asarda Bobur uch malika-Esondavlat Begim, Qutluq Nigorxonim, Xonzoda begim timsolida oqila, tadbirli, aqilli, mehribon, latofatli ayol obrazini gavdalantirgan. Asardagi har bir ayol obraziga muallif haqqoniy yondashishga, uning faqat salbiy yoki ijobiy tomonini emas, balki boricha, hayotiy haqiqatga mos, qisqa, lo‘nda ma’lumotlar berishga harakat qilgan.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Boburnoma” butun jahonga o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi. Asardagi har bir berilgan ma’lumot, har bir detal, hoh u tabiat manzarasi bo‘lsin, hoh biror shaxs nomi - barchasi biz uchun qadrli va qimmatli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baratova X. ”Boburnoma”da xotin-qizlar obrazi talqini. f.f.b.f.dok (PhD) diss.avtoreferati. Buxoro, 2024
2. Fayziyev T. Temuriy malikalar. – Toshkent, 2012-y. – B. 72
3. Rajabova B. Oqila va mudabbira onalar. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi. – Toshkent, 2013-y. 23- soni
4. Saidov Y., Sayfullayeva R. Eski o‘zbek tili yodnomalari tili va uslubi. / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021-y. 80-b.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. (hozirgi o‘zbek tiliga tabdili. V.Rahmonov, K.Mullaxo ‘jayeva). Toshkent, O ‘qituvchi. 2018
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. Toshkent. 2019-y.

Turdiyeva R.	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz paremiologiyasida zoonim komponentli maqollarning lingvokognitiv xususiyatlari	960
Kamolova S.	Ma’rifatchilik davrida milliy-estetik omillarning o‘rni (Yusuf Saryomiy she’riyati misolida)	966
Xolmamatova S.	Konnotativ ma’no ifodalovchi leksik birliklar	970
Bovmanova B.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar tadqiqi	977
Maqsudova F.	“Bibi Seshanba” ziyoratgohi nomining lingvistik v lingvokulturologik xususiyatlari	980
Tursunboyeva F.	Korpus lingvistikasida diniy manbalarga oid tadqiqotlar tahlili	984
Raximqulova M.	O‘zbek mumtoz adabiyotida so‘fiy ayollar tavsifi	988
Jo‘rayeva M.	Badiiy asar nomlarining ilmiy talqini	992
Mamatova M.	Navoiy ruboiylarining grammatik xususiyatlari tadqiqi	996
Botirov Sh.	XX asr nasrida maqollar va ularning umuminsoniy xususiyatlari	1002
Keldiyorova Z.	8-sinf o‘zbek o‘quvchilarida so‘z ma’nosining o‘zlashtirilishi tadqiqi	1012
Байрамова Д.	Понятие лингвистической экспертизы и история её формирования	1020
Hasanova L.	“Iymon” konseptining dunyo timsolidagi talqini	1026
Olimova M.	“Temur tuzuklari” dagi sonlarning ma’no xususiyatlari	1032
Abduxamidova R.	“Qutadg‘u bilig” asarida fe’l-atvor bildiruvchi so‘zlar	1037
Jamoliddinov M. G‘iyosiddinova G.	Bobur asarlarida yurt qayg‘usi va ichki kechinmalari tasviri	1042
Abdurahmonova B. Abduraxmonova O	“Boburnoma” da uch malika talqin va tasviri	1046